

“IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA ADIB IJODIY KONSEPSIYASI

Ataqulova Nilufar Olim qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mahoratli adib O‘tkir Hoshimovning ko‘ngil dunyosi, o‘ziga xos adabiy yo‘li, ijodidagi individuallik haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Uning betakror ijodiy konsepsiyasi “Ikki eshi orasi” romani haqida keltirilgan izohlar orqali tahlil qilingan. Asardagi zamon va makon, muhit va jamiyat, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar turli voqealar asosida badiiy mahorat bilan ochib berilgani xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy laboratoriya, insoniy qarashlar, tarbiyaviy ahamiyat, vatanga muhabbat, ijodiy salohiyat, yaratuvchanlik mahorati.

ANNOTATION

This article expresses opinions about the spiritual world of the skilled writer Utkir Khashimov, his unique literary path, the individuality of his work. His unique creative concept is analyzed through comments on the novel "Between Two Doors". The relationship between time and space, environment and society, people in the work is revealed with artistic skill on the basis of various events.

Key words: creative laboratory, human views, educational value, love for the motherland, creative potential, creative skills.

Inson hayotda yashash uchun kurashib nafas olar ekan, maqsad-muddaosidan kelib chiqib o‘zidan nimadir qoldirgisi, odamlarga bo‘lgan mehri tufayli yaxshilik qilgisi, ilm ziyosi orqali boshqalarni ortidan ergashtirgisi keladi. Shunday jonkuyar insonlardan biri asarlari, hikoyalari orqali siz-u bizning qalbimizda chuqur iz qoldirgan adib O‘tkir Hoshimovdir. Uning qaysi asari yoki kichik bir hikoyasini o‘qir ekanmiz, o‘ziga xos ibrat maktabi sifatida hayot yo‘limizga albatta asqotadigan nimadir olishimiz tayin. Shunda chiqargan xulosamiz qaysidir salbiy jihatimizni tuzatishga yoki hayotga o‘zgacha nigoh bilan boqishga turtki beradi. O‘tkir Hoshimov avvalo, inson sifatida juda munis va dilbar shaxs edi. Hech kimga o‘xshamaydigan nozik iqtidorga egaligi va mohir ijodkorligi uning bu xislatlariga go‘yo zeb berib turardi. Uning asarlarida ham kuldirish (“Ikki karra ikki besh” “To‘ylar muborak”), ham yig‘latish (“Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”) motivlarini uchratamiz. Buning uchun esa yozuvchida juda katta iqtidor, boy tajriba va nafis nazokat bo‘lishi kerak. Shuning bilan birgalikda yozuvchining ko‘ngil dunyosidan izlanish, o‘z ustida ishlash, ma’lum ma’noda, iztirob chekish va ma’naviy yuksaklik talab etiladi. O‘.Hoshimov ana shunday yuksak qalb egasi edi. Jumladan, fikrimizning dalili sifatida adabiyotshunos olim B. Nazarovning quyidagi fikrlarini keltiramiz:

“O‘tkir Hoshimov ijodini to‘lib-to‘lg‘anib, shiddat va karomat bilan oqayotgan daryoga o‘xshatgim keladi. Qahramonlarini hayotbaxsh, ko‘tarinki, romantik yo‘sinda ko‘rsatish bilan bir

qatorda, hayotning achchiq haqiqatlarini bo'yamay-netmay, bu jarayonning ichki falsafasidagi mutanosiblikni buzmay, izchil realistik yo'sinda tasvirlovchi yozuvchidir” [1; 15 b].

Darhaqiqat, adib romanlari sanoqli bo'lsa-da, nafaqat o'z davrida, xususan, bugungi kunda ham katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Badiiy adabiyot qaysi janrda yozilganligidan qat'i nazar uning asosiy vazifasi inson ichki olamining turfa xil manzaralarini doimo yangidan tadqiq etishdir. Asarlarda yaratilgan qahramonlar va badiiy timsollarda yozuvchining keng kitobxon ommasiga aytmochi bo'lganlari, niyati, yashashdan maqsadi mujassamlashadi. Asarning qanchalik ta'sirchan va o'qishli chiqishi, o'quvchini ko'p vaqtga sehlrab qo'yishi adibning kuchli mahoratiga va ma'naviy dunyosi boyligiga bog'liq. Asarlarni o'qib, qahramonlar bilan birga “yashaymiz”. Hayotimizga bevosita qaysidir qahramonni kiritamiz, ulardek iztirob chekamiz. O'tkir Hoshimov aytganidek, haqiqiy asar davr va zamon sinovidan o'tgan asardir. “Ikki eshik orasi” ni aynan shunday asarlar sirasiga kiritgan holda, aytish mumkinki, u kitobxon ma'naviy dunyosiga bevosita ta'sir o'tkazib, uni fikrlashga, hayotga tanqidiy nigoh bilan boqishga undaydi. Bu xususda taniqli munaqqid U. Normatovning ham asosli fikrlari mavjud:

“...“Ikki eshi orasi”- personajlari eng ko'p roman. Badiiy ijodda bir qonuniyat bor: asarga kiritilgan har bir obraz ijodkordan o'zligini, xarakterini “talab qila boshlaydi”. Mohir san'atkorlar asarga mumkin qadar kam qahramon kiritishga intiladilar. Asarda qahramonlar ko'p bo'lsa-yu, ularning mohiyati ochilmasa yozuvchi zinhor yutuqqa erisholmaydi. O'tkir Hoshimov romanidagi har bir personaj, hech bo'lmasa, bitta xususiyati, belgisi bilan “yarq” etib ko'rinadi” [2; 552 b]

Qahramonlarning xarakteridagi botiniy va zohiriy his-tuyg'ulari o'z-o'zidan kitobxonga yuqadi. Bularning barchasiga nazar solib qaraydigan bo'lsak, O'tkir Hoshimov katta iste'dod sohibi ekanligi va ijodiy konsepsiyasining naqadar boyligiga guvoh bo'lamiz. Bundan tashqari, asarlaridagi poetik obrazlarda aks etgan estetik, axloqiy, falsafiy ma'nolar salmog'i va ijodining individualligi bilan ham ajralib turadi. Rostgo'ylik, halollik, mardlik, vafo va sadoqat, aldov va xiyonat kabi xislatlar har bir qahramon fe'l-atvori va taqdiri misolida betakror badiiy chizgilar orqali aks etadi. Asarning bosh g'oyasi o'quvchi - kitobxonga urush davri ijtimoiy muhitini ushbu davr odamlarining ayanchli qismati, ruhiy iztiroblari, qalb tug'yonlari, ichki kechinmalari orqali ro'y - rost tasvirlab berishdan iboratdir. Shuning bilan birgalikda, o'tgan asrda ikkinchi jahon urushining turli xalqlar qatori o'zbek xalqiga keltirgan kulfatlarini yoritishga bag'ishlangan. Asar olijanob o'zbek xalqining turmush tarzini insoniy qarashlar va qadriyatlarga ega bo'lgan milliy mentalitetini ochib bera olgan. Urush va u qalblarga qoldirgan og'riqli, ayanchli yaralar, jamiyatdagi sarqitlar bir necha vaqtlargacha insonlarga ta'sir qilishi, taqdirlarini o'zgartirib yuborishi aniq va ishonarli dalillar orqali ifodalangan. Asarni sinchiklab o'qiganda xayolan nosirning ijodiy laboratoriyasiga beixtiyor qadam quyish mumkin. Adib ijod qilar ekan, nafaqat “Ikki eshik orasi”da balki yana bir qator asarlarida davr qiyinchiliklarini boshidan o'tkazayotgan xalq o'tmishini, uning zamirida esa o'sha mash'um urushni qoralaydi. Muallif garchi urushda qatnashib, undagi voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rmagan bo'lsa-da, u yaratgan obrazlar, voqea-hodisalar mantiqan bir-biriga bog'lanib muayyan kompozitsion yaxlitlikni tashkil qiladi va bu ijodkorning badiiy tafakkuri nihoyatda boy ekanligini ta'kidlaydi.

“O‘tkir Hoshimovning deyarli barcha asarida voqealar ko‘lami nisbiy tugal ma‘no anglatadi. Romanlarida keskin burilishlar, kutilmagan holatlar, tuyg‘ularning yangi qirralarini ochilishi ko‘zga tashlanadi. Bu holat munaqqidlar e‘tirofiga sabab bo‘lgan yana bir ko‘rinishdir” [3; 68 b].

Adib bilan zamondosh, asarlarining yaratilishida ma‘lum ma‘noda ishtirok etgan tanqidchi olim A. Rasulovning quyidagi yozganlari yuqoridagi fikrlarimiz dalilidir.

“Ikki eshik orasi” - yirik ijtimoiy, maishiy - axloqiy roman. Asar uzoq davrlik voqealarni, ko‘plab kishilar taqdiri, hayot yo‘lini, xilma-xil ijtimoiy muammolarni o‘z ichiga qamrab oladi. Roman voqealarining bir uchi 30-yillarning boshlariga, qishloqdagi kollektivlashtirish davri hodisalariga borib tutashsa, ikkinchi uchi 70-yillarning oxiriga kelib taqaladi. Shunday bo‘lsada, romanning markazida Ulug‘ Vatan urushi davri, urush yillaridagi qishloq hayoti, urush va inson muammolari turadi” [4; 66 b.].

Muallifning o‘sha davr ruhini asarda to‘la aks ettira olganligi ijodiy muvaffaqiyatdir. Romanni o‘qir ekansiz, adib badiiy tasvir vositalarini naqadar topqirlik bilan qo‘llaganiga guvoh bo‘lasiz. Nosir obrazlarni yaratishda, xoh u kichik epizod bo‘lsin, yoki asosiy qahramon bo‘lsin, har biriga ma‘lum vazifa yuklaydi. Har qaysining o‘z qismati, dil iztiroblari aks etgan hikoyalari bor. Biri davr inqirozlariga bo‘yin egadi, yana biri o‘zini “vatan uchun fidoyi inson” sanab har xil gunohlarga qo‘l uradi, boshqasi el ishiga kamarbasta bo‘lib hayotini, muhabbatini qurbon qilsa, kimlardir har qanday vaziyatda ham insoniy fazilatlariga aslo xiyonat qilmaydi. Bundaylar alal - oqibat nobakor va razil kimsalar ustidan chinakam g‘alaba qozongan insonlar hisoblanadi. Qahramonlarning o‘z haqiqati bor. Farqi shundaki, nafaqat front uchun, balki butun insoniyat uchun ofat bo‘lgan urush insonlarni asl qiyofalarini ochib bergan.

Kurrai zaminda barcha tiriklik hayot deb atalmish ajib go‘shada yashar ekan, avvalo o‘z maqsadi, intilishi, niyati bo‘ladi albatta. Xuddi shu tiriklikning Alloh tomonidan yaratilgan eng oliy hosilasi bu – Inson. Anglashiladiki, badiiy adabiyotning predmeti - inson, vazifasi esa insonning ichki kechinmalarini kashf etish, tuyg‘ularini tarbiyalashdir. Yozuvchining ustuvor jihati shuki, borliqqa, odamlarga boshqalar kabi emas, o‘ziga xos munosabat bildiradi. Hayotni oddiy odamlar ko‘ra olmaydigan eng mayda detallarini, turfa xil chigalliklarini qalb qo‘ri bilan his eta oladi, har bir yaratadigan asarini ichki bir hissiyot bilan yonib yaratadi. Qahramonlari bilan birga yashaydi, kulsa kuladi, yig‘lasa yig‘laydi, jang maydonlarida yelkama-yelka turib qon kechadi. Aynan shu betakror jihati bilan kitobxon qalbidan joy oladi. Ijodkor o‘z qahramonlari taqdiri, hatti-harakatlari orqali tariximizning rutubatli kunlarini tanishtirish bilan birgalikda, Vatanga, xalqqa, tinchlikka, ona yerga bo‘lgan cheksiz muhabbat tuyg‘usini uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov B. Xalq mehrini qozongan adib. - T.: O‘zbekiston, 2013. 477 b.
2. Normatov U. Taqdirlar romani. - T.: G‘afur G‘ulom, 1986. 553 b.
3. Toshpo‘latov A. Novella janri. - Samarqand: SamDU, 2014. 143 b.
4. Rasulov A. Ijodning sirli ibtidosi // Yoshlik 1991. № 12.